№ 4-AMALIY MASHG‘ULOT



MASOFAVIY TA’LIMNI QO‘LLASH IMKONIYATLARI.

Ishning maqsadi: *masofaviy ta’limni qo‘llash imkoniyatlari va undan foydalanishdan kutilgan maqsadlar quyidagilardan iborat:*

Masofaviy ta'limning imkoniyatlari:

- **Qulaylik va moslashuvchanlik:**
  - *talabalar o‘zlariga qulay vaqt va joyda ta’lim olishlari mumkin;*
  - *ish bilan o‘qishni birga olib borish imkoniyatningi mavjudligi;*
  - *o‘quv materiallariga istalgan vaqtda kirishning mumkinligi.*
- **Keng qamrovlilik:**
  - *turli xil o‘quv dasturlari va kurslarining mavjudligi;*
  - *geografik cheklovlarning yuqolishi, dunyoning istalgan nuqtasidan ta’lim olishning mumkinligi;*
  - *maxsus ehtiyojli shaxslar uchun ham ta’lim olish imkoniyatning yaratilganligi.*
- **Interaktivlik:**
  - *onlayn muhokamalar, vebinarlar va video konferensiyalar orqali pedagog va talaba o‘rtasidagi faol muloqot o‘rnatilganligi;*
  - *interaktiv o‘quv materiallar va topshiriqlar orqali bilim olish jarayonini qiziqarli bo‘lishligiga erishilishi.*
- **Tejamkorlik:**
  - *transport va turar joy xarajatlarining kamayishi;*
  - *o‘quv materiallarining elektron shaklda taqdim etilishi tufayli bosma nashrlarga bo‘lgan ehtiyojning keskin kamayishi.*
- **Texnologik imkoniyatlar:**
  - *zamonaviy texnologiyalar tufayli ta’lim jarayoni samaradorligiga erishilishi;*

- *virtual reallik, sun’iy intellekt va boshqa innovatsion texnologiyalarning ta’lim sohasida qo‘llanilishi.*

Masofaviy ta'limdan foydalanishdan maqsadlar:

- **Ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish:**
  - *ta’lim olish uchun geografik, moliyaviy va boshqa to‘siqlarning bartaraf etilishi;*
  - *hayot davomida ta’lim olish imkoniyatining yaratilishi;*
- **Bilim va ko'nikmalarni oshirish:**
  - *zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish;*
  - *kasbiy malakani oshirish yoki yangi kasb o‘rganish;*
  - *shaxsiy rivojlanish va o‘zini-o‘zi takomillashtirish.*
- **Ta’lim olish sifatini oshirish:**
  - *interaktiv va qiziqarli o‘quv materiallari yordamida ta’lim sifatini oshirish;*
  - *talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’lim dasturlarini yaratish;*
  - *pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish.*
- **Ta'limning samaradorligini oshirish:**
  - *Ta’lim jarayonini optimallashtirish va vaqtni tejash;*
  - *talabalarning mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirish;*
  - *talabalarning faolligini oshirish va ularni ta’lim jarayonlariga jalb qilish.*

Masofaviy ta’limning bu imkoniyatlari va maqsadlari ta’lim tizimini yanada rivojlantirishga, har bir inson uchun sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Vazifalar:

1. talabalarga mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarni yetkazishni ta’minlash;

2. mavzuni yoritishda lozim bo‘ladigan dasturiy ilovadan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

3. internetdan ta’limiy maqsadlarda foydalanishning asosiy qoidalarini o‘rgatish.

O‘quv vositalari: *shaxsiy kompyuter, multimediali proektor, ekran, LCD monitor,markerlar, ish daftari, tarqatma materiallar.*

Qisqacha nazariy ma’lumot

Masofaviy ta‘lim – bu oqitishning insonparvar shakli bo‘lib, an’anaviy, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslanadi.

Masofadan o‘qitish uslubi bu sirtqi o‘qishning yangi shaklidir. Masofadan o‘qitish bu mustaqil o‘qishdir. Mustaqil o‘qish o‘z navbatida, insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masofadan o‘qitishning yana bir afzalligi shundaki, unda talaba o‘ziga qulay vaqtda va hattoki ishdan ajralmagan holda o‘qishi mumkin. Aynan shu afzalliklari tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan.

Masofaviy ta‘limning tarkibiy qisimlari quydagilar: *pedagog, talaba va kommunikatsiya.*

Masofaviy ta‘limda ma’lum maqsad asosida ta‘lim sub’ekti va ob’ektining ta‘lim vositalari yordamidagi o‘zaro ta’siri amalga oshadi.

Masofadan o‘qitishning uslubiy vositalari quyidagilar:

- elektron kutubhonalar,
- audio va vidiodarsliklar,
- web-saytlar,
- elektron darsliklar.

Shu bilan birga, masofaviy o‘qitish kommunikatsiya va axborotni qayta ishlashning yangi texnik vositalari va sirtqi ta‘limning asosiy usullariga tayanadi.

Masofaviy ta’limning didaktik tizim esa 12 elementni o‘z ichiga oladi.

Maqsad		**O‘quv-moddiy**
Mazmun	**Pedagog**	**Назорат**
Metolar		**Normativ-huquqiy**
Vositalar	**Talaba**	**iqtisodiy**
Shakllar		**Marketing**

Mashg‘ulot rejasi:

1. **Kirish qismi** *(5 daqiqa)***:**
   1.1. talabalar bilan salomlashish va mashg‘ulot mavzusini e’lon qilish;
   1.2. amaliy mashg‘ulotni bajarish yuzasidan qisqa suhbat o‘tkazish.
2. **Asosiy qism** *(30 daqiqa)*:
   2.1. talabalarning ish faoliyatini kuzatib borish;
   2.2. to‘g‘ilgan savollarga javob berish;
3. **Yakuniy qism** *(10 daqiqa)*:
   3.1. talabalar ishlarini tekshirish va muhokama qilish;
   3.2. talabalarni rajbatlantirish;
   3.3. talabalar uchun uy vazifalarini berish.
   3.4. mashg‘ulotni yakunlash.

Mashg‘ulot jarayoni:

Mashg‘ulot davomida talabalar faolligini oshirish uchun turli interaktiv usullardan foydalanish;

Har bir talabaga kompyuter bilan ishlash imkoniyatini yaratib berish;

Talabalarning mashg‘ulotga qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga erishish.

Qo‘shimcha tavsiyalar:

Mashg‘ulotni o‘tkazishdan oldin kompyuterlar va dasturlarning ishga tayyorligini tekshirish talab etiladi. Talabalarning bilim darajalari hisobga olgan holda topshiriqlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Talabalarga axborot xavfsizligi qoidalari haqida qisqacha ma’lumot berish lozim.

Ushbu ishlanma boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Zamonaviy interfaol metodlar masalan, “Jamoaviy o‘qitish” usuli loyihasini ishlab chiqing va taqdimotini o‘tkazing.

Loyihaning maqsadi: pedagogik texnologiyalarining sifatsa va maradorligini masofaviy texnologiyalarni joriy etish orqali boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayoni sharoitlarini optimallashtirish.

Loyiha vazifalari:

Masofaviy ta’lim texnologiyalari va shakllarini o‘rganish;

“BSAT” fani o‘quv dasturini tahlil qilish. Masofaviy ta’lim formatida o‘qitilishi mumkin bo‘lgan mavzular orqali aniqlash;

Tanlangan fan mavzulari va masofaviy ta’lim imkoniyatlari mazmuni va rejalashtirilgan natijalarini o‘zaro bog‘lash;

Boshlang‘ich sinflar uchun masofaviy ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish;

Ishlab chiqilgan texnologiyalarni joriy etish uchun tashkiliy shart-sharoitlarni ishlab chiqish (yaratish);

Ishlab chiqilgan texnologiyalarni boshlang‘ich sinflarнинг o‘quv jarayoni amaliyotiga joriy etish;

Boshlang‘ich sinflarda masofaviy ta’lim texnologiyalari samaradorligi monitoringini o‘tkazish;

Boshlang‘ich 2-4 -sinflarda masofaviy ta’lim shakllarini joriy etishni sinovdan o‘tkazish;

Loyiha muddati: 2024-2025 o‘quv yili yakunigacha.

2-topshiriq. Zamonaviy interfaol metodlar masalan, “Tarmoқlar metodi” usuli loyihasini ishlab chiqing va taqdimotini o‘tkazing.

3-topshiriq. Zamonaviy interfaol metodlar masalan, “3x4 metodi” loyihasini ishlab chiqing va taqdimotini o‘tkazing.

4-topshiriq. Zamonaviy interfaol metodlar masalan, “Talaba metodi” loyihasini ishlab chiqing va taqdimotini o‘tkazing.

Izoh: *Ushbu loyihalarni yaratishda ham 1 topshiriqdagi vazifalaridan foydalaning!*

Topshiriqlarni bajarishda jadvalda keltirilgan masofaviy ta’lim web-xizmatlaridan foydalaning.

Web xizmatlar	**Foydalanish**
Google formalar	Testlar va anketalar yaratish *(shu jumladan ota-onalar uchun)*
Google - jadvallar	Jadval yaratish va ma’lumotlar bilan ishlash bo‘yicha hamkorlik
Google - taqdimot	Taqdimotlarni yaratish va birgalikda tahrirlash

QR – kod	Real parametrlarni virtuallik bilan birlashtirish va undan nafaqat elektron shaklda, balki tarqatma materiallar formatida ham foydalanish.
“Onlayn Test Rad” test konstruktori	Shaxsiy kichik -saytni osongina yaratish, testlar, krossvordlar va boshqalarni ishlab chiqish, materiallar va hamkasblar bilan faoliyat imkoni. Talabalarni test va nazorat ishlariga tayyorlashni tashkil etishga juda qo‘l keladi.